

## AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIK BO'YICHA ILG'OR XORIJIY ARMİYALARDAGI TAJRIBALAR TAXLILI

**To'raqulov Oxunjon Mamajon o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada axloqiy-ruhiy tayyorgarlik bo'yicha ilg'or xorijiy armiyalardagi tajribalar taxlili, undagi yondashgular bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** harbiy jamoa, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, psixologik ishlar, harbiy xizmatchi shaxsi psixikasi, eksperiment laboratoriya, individualizm, perspektiv shakllar, ekstremal vaziyat.

**Аннотация:** в данной статье проводится анализ опыта передовых иностранных армий по морально-духовной подготовке, описаны подходы в нем.

**Ключевые слова:** военный коллектив, морально-духовная подготовка, психологическая работа, психика военнослужащего, экспериментальная лаборатория, индивидуализм, перспективные формы, экстремальная ситуация.

**Abstract:** this article analyzes the experience of advanced foreign armies in moral and spiritual training, and describes the approaches therein.

**Key words:** military team, moral and spiritual training, psychological work, psyche of a serviceman, experimental laboratory, individualism, promising forms, extreme situation.

*“Quyi pog'onadagi bo'linmalarning axborot-psixologik ta'sirlarga bardosh bera olish qobiliyatini oshirishga qaratilgan tayyorgarlik ishlarini doimiy yo'lga qo'yish zarur”.*

**Shavkat Miromonovich Mirziyoyev,**

*O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni.*

Jahondagi etakchi mamlakatlarning harbiy-siyosiy rahbariyati qurolli kuchlar shaxsiy tarkibining yuksak axloqiy-ruhiy holatini ushlab turishni milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'radi. Har bir davlat armiyasida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi turlicha olib boriladi. Jumladan, Amerika va Rossiyada bu jarayon asosan jangovar va jismoniy tayyorgarlik davomida maxsus o'quv markazlar va dala mashg'ulotlarida olib boriladi. Buyuk Britaniyada asosiy e'tibor tanlov asosida saralash va harbiy-kasbiy o'quv jarayoniga qaratiladi. Germaniyada axloqiy-ruhiy tayyorgarlik olib borish uchun eng qulay vaqt bu bo'linma va qismlarni jangovar jipslashtirish davridir. Yaponiya “O'z o'zini mudofaa qilish kuchlari”da askar va ofitserlar xizmatining barcha bosqichlarida, ayniqsa mashqlar va manyovrlar davrida amaliy bajariladi.

Harbiy mutaxassislarning fikriga ko'ra, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini ko'tarishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

davlatning harbiy-sanoat salohiyatini yuksaltirish va mustahkamlash hamda zamonaviy harbiy-siyosiy vaziyat talablari va mamlakat milliy havfsizligini ta'minlash darajasida ushlab turish;

harbiy maqsadlarda ilmiy-texnikadan foydalanish va mamlakat harbiy sanoat kompleksini yanada rivojlantirish;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlik barcha toifadagi harbiy xizmatchini qamrab olishini tashkil etish;

shtab, qo'shin operativ va jangovar tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirish;

harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, shaxsiy tarkibning moddiy manfaatdorligini ko'tarish;

harbiy boshqaruv organlarini kasbiy-malakaviy darajasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish.

Rus harbiy ekspertlari S.Zavyalov, P.SHitov, E.CHinukvadze, S.Voronsov, V.Utkin va M.Zelenkovlarning fikrlari tahliliga ko'ra, yetakchi G'arb mamlakatlari, xususan, NATO davlatlari, AQSH, Buyuk Britaniya, GFR, Turkiya armiyalarida sohani tartibga soladigan o'ziga xos institutsional, tashkiliy, iqtisodiy va g'oyaviy-siyosiy tizim mavjud bo'lib, ular harbiy blok maqsadi va har bir davlatning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda faoliyat olib boradi. Jumladan, mustahkam axloqiy-ruhiy holatni ushlab turish uchun alyans davlatlarining rahbarlari harbiy xizmatchilarga ijobiy ta'sir qilish vositasi sifatida OAVdan keng foydalanmoqda. SHuningdek, hozirgi kunda NATO mamlakatlari qo'shinlarda "XXI asrda shaxsiy tarkibni axloqiy-ruhiy sifatlarini shakllantirish" dasturini ishlab chiqqan. Ushbu dastur harbiy xizmatchilar uchun asosiy talablarni belgilaydi: yuksak intellekt, jismoniy kuch va harbiy xizmat uchun kuchli motivatsiya.

Hujjatda an'anaviy axloqiy-ruhiy va axloqiy-estetik me'yorlarni singdirishning amaliy mexanizmi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu yondashuv moddiy rag'batlantirish tamoyillari bilan chambarchas holatda harbiy xizmatchilarning ruhi va ongiga ta'sir o'tkazadi. Undan tashqari, axloqiy-ruhiy tayyorgarlikda samarali va aniq bir maqsadga erishish uchun G'arb davlatlari armiyalarida maxsus tashkilotlar tuzilgan bo'lib, ular ushbu tayyorgarlik ustidan nazoratni amalga oshirishadi. SHu bilan birga, tashkilot vakillari ana shunday tayyorgarlikni amalga oshirishning shakl va metodlarini ofitser va serjantlarga ham o'rgatish bilan shug'ullanishadi.

G'arb davlatlari harbiy mutaxassislarining ushbu tayyorgarlikka o'z qarashlari mavjud bo'lib, ularning fikriga ko'ra, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: axloqiy ruhni shakllantirish; siyosiy ta'lim; shaxsiy tarkibni jangovar harakatlarni olib borishga jismoniy tayyorligi. Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik quyidagilarga javob berishi kerak: birinchidan, axloqiy-jangovar sifatlarni shakllantirish uchun ushbu tayyorgarlikning bor imkoniyatidan foydalanish va har tomonlama qamrab olishi shart. Har tomonlama qamrab olishiga, ofitserlar va askarlarga ta'sir qilishning zamonaviy usul va uslublarini, harbiy psixologlar va

sotsiologlar ishlab chiqqan eng so'nggi metodlarini, mashg'ulotlar o'tkazishning eng yangi shakllarini qo'llash orqali erishiladi; ikkinchidan, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik real bo'lishi kerak. Bunga erishish uchun ushbu tayyorgarlik alohida ishlab chiqilgan rejaga asosan, maxsus jihozlangan dala o'quv maydoni va o'quv markazlarida, jangovar vaziyatni real holatini yaratish bo'yicha barcha texnik vositalar imkoniyatidan foydalanish zarur; uchinchidan, samaralilik. Buning uchun harbiy xizmatchilar qisqa tayyorgarlikdan so'ng jang olib borishga qobiliyatli bo'lishiga erishish zarur; to'rtinchidan, tizimlilik. Bunda mazkur tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazishda bosqichma-bosqichlik va mantiqiylikka erishish kerak; beshinchidan, tayyorgarlik industrial xarakter kasb etishi kerak. Bunda uning bajarilishi, zamonaviy harbiy texnika va qurollar imkoniyatlariga moslashtirilgan sifat darajasiga muvofiqligini anglatadi.

SHuningdek, qurolli kuchlar shaxsiy tarkibining axloqiy-ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pasayishiga sabab bo'luvchi haddan tashqari moddiy rag'batlantirishga qiziqish;

dushmanni nazarga ilmaslik, o'z kuchini ortiqcha baholash;

jangovar xarakter jarayonida tashabbuskorlikni yo'qotish;

irqiy, etnik bid'atlar, individualizmning namoyon bo'lishi, shuhratparastlik, o'zaro munosabatlarda ziddiyat borligi; spirtli ichimliklar, narkotik moddalarni suiste'mol qilish kabilardir.

SHuningdek, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligining asosiy yo'nalish va uslublarini quyidagicha belgilashadi: realistik qiyofani, harakatlar taktikasini, ehtimoliy dushmanning jangovar imkoniyatlarini modelini tuzish; harbiy xizmatchilarni jangovar harakatga bo'lajak jang harakatlari mintaqasining tabiiy-geografik va havoiqlimi sharoitida tayyorlash; zamonaviy jangni real modelini ko'p qirrali ko'rinishini tuzish; jangovar o'quv jarayonida jismoniy va ruhiy zo'riqishni zamonaviy jang uchun xarakterli xususiyatini yaratish; harbiy bo'linmaning jipsligi, ularda bir-birini qo'llash va o'zaro yordam munosabatlarini shakllantirish; harbiy xizmatchilarda jangovar stress-omillarini psixotexnik usullar yordamida oldini olishning imkoniyatlarini kengaytirish kabilardir.

Odatda, harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy tayyorgarligini quyidagi o'ziga xos senariy asosida tashkillashtirishadi. Buning birinchi bosqichida, odatda o'ziga xos psixoterapiyani amalga oshiradi. Bu degani o'qitish jarayonida ataylab shunday sharoit yaratiladiki, u harbiy xizmatchilarda salbiy psixologik holat keltirib chiqaradi. Jangovar vaziyatga yaqin holatga tushganda askar ko'pincha o'z kuchiga bo'lgan ishonchini yo'qotadi, loqayd va depressiya holatigi tushadi, unda qo'rquv hissi tug'iladi. Ko'pincha bunday holatda u bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, qo'loyoqlarining uvishib qolishi kabi bir qator og'riqli harakterdagi alomatlarni his qiladi. Buning natijasida u ovqatdan voz kechishi, uyqusizlik, o'z xizmat majburiyatlarini unutish, noo'rin hatti-

xarakterlar qilish va hattoki xizmatdan qochishi mumkin. Biroq buning hammasi o'qitish vaqtida katta xavf tug'dirmaydi. Loqaydlikni, boshqa salbiy emotsiya va hissiyotlarni yengib o'tish, ularda o'zini boshqarish malakalarining eng oson usulini ishlab chiqadi va askarlarni o'z qo'rquvini engishga o'rgatadi va shu kabi tadbirlar bilan davom etadi. Ikkinchi bosqich o'z ichiga psixologik stimullar berish deb nomlangan tadbirlarni kiritadi.

Shu bilan birga, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini yaxshilashni asosiy omillari quyidagicha:

shaxsiy tarkibga g'oyaviy ta'sirni kuchaytirish va uni axborot psixologik xurujlardan himoya qilish;

harbiy maqsadlarda fan texnikaning yutuqlaridan foydalanish va keyinchalik mamlakatning harbiy ishlab chiqarish kompleksini rivojlantirish;

shaxsiy tarkib barcha toifalarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini kuchaytirish va ayniqsa tezkor jangovor tadbirlarga tayyorlanish jarayonida tegishli savol va muammolarni qayta ko'rib chiqish;

harbiy qo'shinning tezkor jangovor tayyorgarlik jarayonini takomillashtirish.

G'arb harbiy mutaxassislari askar va ofitserlarni psixologik chiniqtirish uchun haqiqiy jangovar vaziyatga imkon boricha yaqinlashtirish bo'yicha quyidagi konsepsiyalarga rioya qilishadi: jangovar o'quv mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan askar haqiqiy jang sharoitiga bimalol chidashi mumkin; psixologik sifatlardan birinchi navbatda ishonch tuyg'usini shakllantirish lozim; psixoterapiya va psixostimullashtirishning yo'llari va usullari turli xil ko'rinishda bo'lishi lozim.

Ekspertlarning taxminicha, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini rivojlanish istiqboli quyidagi yo'nalishda kechadi:

axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning shakl va usullari inqirozli vaziyatlar va urush operatsiyalariga qatnashmasdan, harbiy harakatlar maydonidan olisda, imkon boricha jang sharoitiga yaqinlashtiriladi. Asosiy e'tiborni mahalliy konfliktlar (nizo) tajribalaridan kengroq foydalanishga, mashg'ulot va manyovrlarga, shuningdek, shaxsiy tarkibning qo'yilgan vazifalarni bajarish jarayonida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik darajalarini aniqlash maqsadida qilinadigan inqirozli vaziyatlarga qaratish talab etiladi;

shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligining shakl va usullarini ishlash vaqtida raketali-yadroviy texnologiyalar, terrorizmning rivojlanishi hamda "Yadroga qarshi", "Kimyoviy", "Bakteriologiyaga oid" ommaviy qirg'in qurollarni tarqalishining xavfini oshishi bilan bog'liq tamonini hisobga olishi;

Qurolli kuchlardagi shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini talab darajasida ushlab turishda axloqiy-ruhiy tayyorgarligini amalga oshirish va amaliy tadbirlar uchun ishlarni muvofiqlashtirishni yaxshilash va tashkiliy-shtat tuzilishini takomillashtirish zarurati;

qo'shinning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar mashqlarini imkoni boricha haqiqiy jang sharoitida yuqori darajada integratsiyalash;

shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligida sotsiologiya, psixologiya va psixiatriyaning eng yangi yutuqlaridan faol foydalanish;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni reglament asosida tashkillashtirish va o'tkazish uchun perspektiv nizomlar, qo'llanma va boshqa xujjatlarni ishlab chiqish, shuningdek, harbiy xizmatchilarning barcha sifat parametrlari – kasbiy darajasi, jismoniy holati, sog'lig'i, aqliy qobiliyati, axloqi va psixikasiga yangi talab va standartlar o'rnatish lozim.

NATO davlatlari armiyasida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tizimi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega: Qurolli Kuchlar tizimining boshqaruvida muhim va e'tiborli ahamiyat kasb etuvchi barcha bo'linmalardagi maxsus apparatni mavjudligi; tegishli organlarni tarmoqlanishi va qat'iy bo'ysunishi; axloqiy-ruhiy tayyorgarlik boshqaruv organlari ixtiyorida kuchli moddiy va moliyaviy baza, ko'psonli yuqori malakali kadrlar tarkibi bilan uyg'un holda mavjudligi; aniq belgilangan g'oyaviy-nazariy va metodologik asosning mavjudligi va yuqori sifatli qonun chiqaruvchi ta'minotga egaligi; axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning aniq maqsadga qaratilganligi va ko'laminig kengligi; qo'yilgan masalani yechishda kompleks ravishda yondashuv; ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi, amaliyotning aniqligi va har tamonlama rejalashtirilganligi.

SHunigdek, alyans davlatlari armiyasini axloqiy-ruhiy tayyorgarligining mazmunida quyidagi yo'nalishlar mavjud:

harbiy xizmatchilarda harbiy xizmatga bo'lgan yuqori harbiy-kasbiy sifatlarni va ijobiy motivlarni shakllantirish;

shaxsiy tarkibni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

milliy qadriyatlarga sodiqlik;

asirlikda yashovchanlik ko'nikmalarini hosil qildirish va ekstremal sharoitlarda uzoq vaqt ichida jangovar harakatlarni olib borishga tayyorlash;

shaxsiy tarkib bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish.

NATO davlatlari aksariyat harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy holatiga ijobiy ta'sir o'tkazadigan omillar: shaxsiy kasbiy tayyorgarligini yuksak darajasiga ko'tarish va uni muttasil ravishda oshirishga intilish; o'z davlat tuzumini o'ziga xosligiga ishonish; o'z davlatiga va uning Qurolli Kuchlariga tegishlilikidan g'urur va iftixorlik hissi; butun Qurolli Kuchlar va harbiy qismning qadriyatlariga sodiqlik; o'z qurolining sifatiga ishonish; urush harakatlari boshlanishiga yuksak psixologik tayyorgarlik kabilardir.

Alyans davlatlari aksariyat harbiy xizmatchilarini axloqiy-ruhiy holatining asosiy kuchli taraflari quyidagilardan iborat:

shaxsiy kasbiy tayyorgarlikni yuksak darajaga ko'tarish va uni muttasil ravishda oshirishga intilish;

o'z davlat tuzumini o'ziga xosligiga ishonish, o'z davlatiga va uning Qurolli Kuchlar tegishlilikidan g'urur va iftixorlik hissi, butun Qurolli Kuchlar va harbiy

qismning qadriyatlariga sodiqligi, o'z qurolining sifatiga ishonishi, harbiy xarakterlar boshlanishiga yuksak psixologik tayyorgarlik.

SHuningdek, barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning millatidan, jinsidan, ma'lumot saviyasidan qat'iy nazar ongiga ta'sir etishning faol shakli diniy e'tiqodiy jihatlari hisoblanadi. Bu eng avvalo Qurolli Kuchlardagi ijtimoiy-diniy muhitni ta'minlaydi. Harbiy xizmatchilarga diniy ta'sir o'tkazish axborot to'yinishidan farq qiladi. Kapellanlar (harbiy ruhoniylar) xizmati harbiy xizmatchilarning ruhiy chiniqishini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ular qism va bo'linma komandirlariga diniy maslahatchi sifatida shaxsiy tarkibni ma'naviy-axloqiy hamda insonparvarlik tamoyillari asosida tabiiyalashda zarur yordamlarini berishadi.

AQSH mudofaa vazirligida shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi zamonaviy va kelajakdagi harbiy operatsiyalar asosi sifatida qaraladi. SHu bilan birga, harbiy xizmatchilar bilan ishlash asosida amerikacha hayot tarzining g'oyasi, mamlakat prezidentiga va milliy bayrog'iga sodiqlik, Qurolli Kuchlarning, uning hillari, qo'shin va xizmat turlari, tashkilot, bo'limlar va turli ijtimoiy uyushmalar qadriyatlariga amal qilish yotadi. Rasmiy Washington harbiy siyosiy boshqaruv organlari mutaxassislarining fikricha, jangovar tayyorgarlikning yuksak darajasini, avvolambor kasbiy, tezkor va jangovar tayyorgarlik tizimiga samarali ta'sir o'tkazuvchi, o'z navbatida shaxsiy tarkibning ma'naviyatini yuksak darajada saqlash, Qurolli Kuchlardagi xizmatidan faxr va qoniqish hissi, qo'mondonlikka va o'z xatti harakatlariga ishonish kabilar ta'minlaydi. SHuni inobatga olgan amerika harbiy ekspertlari, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, kompleks ta'limot tizimidagi va shaxsiy tarkibning tayyorgarligidagi muhim qism ekanligini ta'kidlashadi. SHu sababli, u qo'shinning barcha tayyorgarliklar jarayonida ixtisoslashtirilgan dasturlarda amalga oshiriladi va Qurolli Kuchlar oldida turgan maqsadlarga bog'lanadi va talab qilingan sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Harbiy xizmatchining tartib-intizomi, jangovar ruhiyati, g'alabaga intilishi, dadilligi, o'z qadrini bilishi, vijdonliligi, burchga va harbiy xizmatga sadoqati va boshqa elementlar axloqiy-ruhiy holatining yuqoriligini ko'rsatuvchi belgilaridir. Ushbu jarayonning oxirgi natijasi bu alohida harbiy xizmatchining ham, huddi shunday bo'linma, qism va Qurolli Kuchlarning ham yuksak axloqiy va ruhiy bardoshi hisoblanadi.

Pentagon rahbarlari XXI asr Amerika Qurolli Kuchlarining axloqiy-ruhiy holati – oddiy askarlar va serjantlar tarkibining tayyorgarlik sifati bilan aniqlanadi, deb hisoblashadi. Ularning fikricha, armiyaning tayyorgarlik darajasiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri – insonning uzoq muddatli istiqboliga e'tibor qilish, komandir va turli darajadagi boshqaruv organlarining harbiy xizmatchilar tartib qoidalariga amal qilishi bo'yicha ijobiy ta'sirni taminlash. SHuningdek, AQSH armiyasining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida axloq qoidalari harbiy xizmatchilarning butun faoliyati mazmuni bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Buyuk Britaniya Qurolli Kuchlarida shaxsiy tarkib axloqiy-ruhiy tayyorgarligining aniq tartibi mavjud bo'lib, unga qator umumiy talablar qo'yiladi: aholiga va shaxsiy tarkibga kompleks va ommaviy tarzda hamda turli daraja va bosqichlarga ketma-ketlikda va ko'p rejali ta'sir ko'rsatish. Ta'sir etishning kerakli vosita va usullari zamonaviy ingliz harbiy faniga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi quyidagilarni nazarda tutadi:

- shaxsiy tarkibning umumta'lim darajasi va axloqiy-ruhiy tavsifini inobatga olib puxta va bosqichma-bosqich tanlov o'tkazilishini;

- jangovar va axloqiy-ruhiy tayyorgarlik umumiy jarayonlarining davomiyligini; - axloqiy-ruhiy ta'sirning, butun harbiy professional faoliyat va bevosita tayyorgarlik jarayonining moddiy rag'batlantirish chora tadbirlari bilan birgalikda uyg'unligini;

- axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tizimi aholi va shaxsiy tarkibga g'oyaviy-siyosiy ta'sir o'tkazish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar talab qilishini va bunda informatsion, diniy, razvedka va razvedka-qo'poruvchilik, xavfsizlik, bo'sh vaqt va turmush, ijtimoiy aloqa va psixologik operatsiyalar xizmatlari kiradi. Mamlakat harbiy boshqaruvi, o'z harbiy xizmatchilarini bardoshli axloqiy-jangovar sifatlarni shakllantirish maqsadida davlat boshqaruv tashkilotlari yordamida o'zini harbiy salohiyatini kuchaytirishga intiladi va e'tiborini g'oyaviy hamda psixologik ta'sirni jadalashtirishga qaratadi. Bardoshli va yuksak axloqiy-ruhiy sifatlarini shakllantirish jarayoni, ingliz askarining milliy psixologik jihatlaridan kelib chiqadi. Barqarorlik, sovuqqonlik, vaziyatlardan ishbilarmonlik bilan foydalanish, har qanday holatlarga ham moslasha olishlik, kuch va bilimlarini tejamoq va kuchaytirmoq, uddaburonlik, oldindan ko'ra bila olishlik, harbiy ayyorlik – bular hammasi ingliz harbiy xizmatchisiga xos.

Umuman olganda shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorlash tizimi yuksak samaradorlikka ega, shuningdek, ingliz harbiy ekspertlarining fikricha, harbiy dengiz kuchlarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi dunyoda eng yaxshilaridan biridir.

Germaniya Qurolli Kuchlarida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik alohida o'quv fani sifatida ko'rilmaydi. Lekin, u shaxsiy tarkibga ta'sir qilivchi g'oyaviy-siyosiy ta'sirlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qo'shinning kundalik faoliyatida, o'quv jarayonlarida va avvalambor tezkor va jangovar tayyorgarlikda ham amalga oshiriladi. Bundesver mutaxassislari fikricha, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik masalalarini yechishda ko'p jihatdan harbiy xizmatchilarning xizmat vazifalarini bajarishiga va ma'naviy-siyosiy holatiga bog'liq bo'ladi. Uning darajasini Qurolli Kuchlarda mavjud "Ichki boshqarma" tizimi taminlaydi. Rasmiy Berlin harbiy-siyosiy rahbariyati harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini tegishli saviyada saqlashga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, Bundesverda ijobiy axloqiy-ruhiy muhitni shakllantirish uchun ko'p bosqichli tizim mavjud. Xususan, milliy psixologiyaning o'ziga xosligi Germaniya Qurolli Kuchlarining zaruriy axloqiy-ruhiy muhitini ta'minlaydigan ajralmas elementlaridir. Jamiyatdan armiyaga ishbilarmonlik, sinchkovlik, intizomlilik va aniqlik kabi sifatlari kirib kelgan, bu hislatlar, qator nizom va dasturlar bilan aniq belgilangan tartibda xizmat jarayonini

saqlashga yordam beradi. Milliy vatanparvarlik tarbiyasi, harbiy-cherkov xizmatining faoliyati, qo'shinning informatsion ta'minoti, harbiy an'analarni saqlash bo'yicha ishlarni olib borish, hamda moddiy rag'batlantirish – bularning hammasi harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holatini yuksak darajaga ko'tarishga yordam beradi. Bundesver harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy holati: davlatning kuchi va imkoniyatlariga barqaror ishonch, harbiy burchning sabablarini yetarlicha teran anglash, emotsional og'ir bosiqlik, pragmatizm, xizmat masalalaridagi kollektivizmdek yetarlicha rivojlangan hissiyotni shaxsiy hayotdagi egosentrizm bilan uyg'unligi va qonunlarga amal qilishi bilan ta'riflanadi.

Rasmiy Berlin harbiy ekspertlari shaxsiy tarkibni axloqiy-ruhiy tayyorgarligining muhim vazifalari deb, quyidagi xulosalarni ko'rsatgan: qo'rquvni yengish va sarosimaga tushmaslik, harbiy xizmatchilarning kichik guruhlariga bo'linishi va o'zaro munosabatlarni shakllantirish va mustahkamlash, (bu o'z o'rnida qo'shinning psixologik bardoshini va jangovor ruhiyatining asosi bo'lib xizmat qiladi) hamda uzluksiz va mustahkam boshqaruvga erishish kabilardir. Harbiy xizmatchilar o'quv markazlarida jangovar tayyorgarlik kurslarini o'tashadi, u yerda ular harbiy xizmatchilarning axloqiy-irodaviy xislatlarni shakllantirishga katta e'tibor qaratishadi. U yerda qo'rquvni, charchog'ni, salbiy tuyg'u va hissiyotlarni o'ldirishga xizmat qiladigan psixologik tayyorgarlikning keng tarqalgan metodikalaridan foydalanishadi.

Turkiya qurolli kuchlarining har bitta diviziyasi tibbiyot batal'oni shtatida serjantlar tarkibi orasidan tayinlangan uchtadan oltitagacha bo'lgan psixiatr, psixolog, sotsiolog mutaxassis yordamchilar mavjud bo'lib, ular bo'linmadagi axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni to'g'ri bajarilishini nazorat qilishadi. Buyuk Britaniya qurolli kuchlarida esa psixiatr va psixolog lavozimlari har bir diviziya shtabida joriy etilgan. Ular harbiy qism va bo'linmalardagi axloqiy-ruhiy tayyorgarlik jarayonini chuqur nazorat qilishadi hamda turli toifadagi harbiy xizmatchilarni ruhiy jihatdan mustahkamlash muammolari bilan shug'ullanishadi. Germaniya va Gretsiya qurolli kuchlarida ushbu sohadagi tadbirlarni tashkil etishda pedagogik va psixologik ta'limga ega bo'lgan maxsus organlar ofitserlari qatnashadilar.

Umuman olganda, xorijiy armiyalarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik shaxsiy tarkibning jangovar shayligi va qobiliyatini yuqori darajada yetarlicha ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda qo'shinning kundalik amaliy-jangovar tayyorgarligi barcha harbiy xizmatchilar bilan hamda to'liq hajmda olib boriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shularni xulosa qilish mumkinki, o'rganilgan yetakchi chet el armiyalaridagi axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tizimining o'ziga xos institutsional asoslarini Qurolli Kuchlarning barcha bo'linmalardagi maxsus apparatni mavjudligi, tegishli organlarni tarmoqlanishi va qat'iy bo'ysunishi, yuqori sifatli qonun chiqaruvchi institutga egaligi bilan izohlanadi. Tashkiliy asoslari ko'psonli yuqori malakali kadrlar tarkibi bilan uyg'un holda mavjudligi, qo'yilgan masalani yechishda kompleks ravishda yondashuv, ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi, amaliyotning



aniqligi va har tamonlama rejalashtirilganligi bilan belgilanadi. Iqtisodiy asoslari axloqiy-ruhiy tayyorgarlik boshqaruv organlari ixtiyorida kuchli moddiy bazaning mavjudligi, sohaga yetarlicha mablag' ajratilishida ko'rinadi.

Harbiy jamoadagi har bir komandir va boshliq axloqiy-ruhiy tayyorgarlik omilining zamon va makon hususiyatiga egaligi, bu yo'nalishda doimiy horijiy tajribalarni kuzatish, o'rganish olib borish zarurligini anglab etishi lozim. Qolaversa axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlarining natijasini ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmaydi, yagona obrazli shaklda namoyon bo'lmaydi. Bu natijadorlik harbiy xizmatchi shaxsining ongida, tafakkurida, oldinda turgan vazifa va topshiriqlarga ichki sodiqlik va fidoiyligida, insoniy resurslarning to'laligicha safarbar etishida mujassam bo'ladi. Mazkur natijadorlik har bir mansabdor shaxs va boshliq uchun bugungi kunning eng muhim bo'lgan dolzarb talabi hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-son qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 08.08.2018 y. 07/18/3898/1622-son.

2. O'.Urunov. Kundalik harbiy xizmat faoliyatning psixologik xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi. O'quv qo'llanma. 2015. B. 5-6.

3. J.Rahimov. Amir Temur. Adolat va qudrat timsoli. Ilmiy-tarixiy kitob. T.: 2017. B. 24-98.

4. M.Abilov. Buyuk ajdodlardan meros muqaddas Vatan. T.: 2012. Harbiy nashriyot. 109 b.

5. A.Ahmedov. Armiya – davlat tayanchi, tinchlik kafolati. "SHarq" NMAK. T.: 2004.